

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

MAMADJANOVA NARGIZA MAHMUDJANOVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MUROJAAT KATEGORIYASINING
LINGVOPRAGMATIK VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

UO‘K: 811.111’255.2:378.2
811.512.133’255.2:378.2

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Mamadjanova Nargiza Mahmudjanovna

Ingliz va o‘zbek tillarida murojaat kategoriyasining lingvopragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari

3

Мамаджанова Наргиза Махмуджановна

Лингвопрагматические и лингвокультурологические особенности категории обращения в английском и узбекском языках.....

25

Mamadzhanova Nargiza Mahmudzhanovna

Linguopragmatic and Linguocultural Features of the Category of Address in the English and Uzbek Languages

47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works

52

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

MAMADJANOVA NARGIZA MAHMUDJANOVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MUROJAAT KATEGORIYASINING
LINGVOPRAGMATIK VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.3.PhD/Fil592 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va «ZiyoNyet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Paluanova Halifa Daribayevna

Filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xayrullayev Xurshid Zayniyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yo‘ldoshev Ulug‘bek Ravshanbekovich

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «___»_____kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92, e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___»_____kuni tarqatildi.

(2023-yil «___»_____dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi.)

G.X. Bakiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filol. f.d., professor

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d. dotsent

J.A. Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon lingvistik jarayoni va shu bilan birga milliy tillar shakllanishi, taraqqiyoti va funksional xilma-xilligi barcha davrlarda ham birday rivojlanishda bo‘lmagan. XX asr oxiri XXI asrning dastlabki o‘n yilliklari o‘tgan asrlarda milliy tillar struktural-semantik va funksional jihatlarining ravnaqini to‘laroq idrok etish imkonini berdi. Hozirgi zamon tilshunosligida murojaat, til kategoriyasi sifatida doimo tadqiqotchilarning e‘tiborini jalb qilib kelgan. XX asrning birinchi yarmida dunyo va Yevropa tilshunoslari tomonidan qo‘lga kiritilgan ulkan ilmiy yutuqlar tillarda murojaat kategoriyasi ifoda vositalarini aniqlash va ularning tizimlilik tabiatini ochib ko‘rsatish bilan bog‘liqdir.

Murojaat kategoriyasining semantik nuqtai nazardan o‘rganilishi so‘nggi paytlarda ko‘proq kommunikativ va pragmatik omillar nuqtai nazardan olib borilmoqda. Pragmatikaning ilmiy fan bo‘lib shakllanishi tadqiqotchilarga murojaat maylini suhbatdoshga ma‘lum darajada ta‘sir ko‘rsatuvchi so‘zlashuv harakatlarning alohida bir turi sifatida o‘rganish imkonini beradi. Pragmatik omillar murojaat mayllarining differensiallashuvini, ya‘ni har xil murojaat mayl ma‘nosidagi turlarning yuzaga kelishini ta‘minladi (buyruq, iltimos, o‘tinch, ogohlantirish, ta‘qiq, ijozat va h.k.lar). XX asr oxirlariga kelib murojaat maylining semantik turlari alohida tadqiqotlar obyektiga aylandi. Zero, «fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, mavjud ilmiy maktablarni saqlab qolish va yangilarini yaratish, ularning kadrlar salohiyatini mustahkamlash, bunda iqtidorli yoshlarning ilm-fanga keng jalb etilishini rag‘batlantirish»¹ga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, tilning ichki imkoniyatlarini egallash milliy ma‘naviyatni takomillashtirish va uni yoshlar ongiga singdirishda alohida ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqot murojaat semantikasini boshqa murojaat mayl ma‘nolari orasida alohida mustaqil ma‘no sifatida aniqlash hamda semantik va kommunikativ - pragmatik yondashuvlar nuqtai nazaridan uni namoyon etuvchi til vositalarini izohlash va tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Semantik yondashuv murojaatni ifodalovchi vositalarning bir ma‘noni til tizimining turli qatlamlarida izohlay oladigan bir mohiyat ekanligini aniqlash imkonini beradi. Ammo murojaat va uning semantikasini ifodalovchi so‘zlashuv til vositalarini ko‘p jihatdan pragmatik omillarga murojaat etmasdan tadqiq qilish bir qancha qiyinchiliklar tug‘diradi, chunki pragmatik omillar murojaat semantikasiga ega bo‘lgan iboralarni kommunikativlik jihatdan oldindan belgilab beradi; murojaat semantikasini voqelantirish uchun maxsus muvofiqlashtirilgan va so‘zlashuv holatida namoyon bo‘luvchi til vositalarining o‘ziga xos xususiyatlarini har tomonlama o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947- son

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 — yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF — 5847-son Farmoni.
https://nrm.uz/contentf?doc=602358_&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana

“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 17-fevraldagi PK-2789-son “Fanlar akademiyasi, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirish yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 30-apreldagi PK- 2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 13-sentabrdagi, PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy talim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshiralayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Murojaat kategoriyasini ifodalovchi til birliklarini tizim tarzida tadqiq qilish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Mamlakatimiz tilshunosligida ingliz, rus va o‘zbek tillarida murojaat kategoriyasining lingvopragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari hamda uning ilmiy-nazariy muammolari G.Bakiyeva, H.Orziqulov, D.Teshabayeva, M.Qodirova kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan.

Ingliz va o‘zbek tilida murojaat kategoriyasining lingvopragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari hamda uning ilmiy-nazariy muammolarini shakllantirish xorijlik olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan.

XIX asrning boshlarida, keyinchalik XIX asrning 60–70-yillarida til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, xususan, lingvokulturologiyaning nazariy muammolari V.fon. Gumboldt, F.I. Buslayev, A.N. Afanasyev, A.A. Potebnya² tomonidan o‘rganilgan, shuningdek, nemis olimlari aka-uka Grimmlar ham soha rivojiga munosib hissalarini qo‘shishdi.

Bu yo‘nalish o‘zbek tilshunos olimlari, xususan, J.A. Yakubov, G.X.Bakiyeva, D.U. Ashurova, A.M. Bushuy, Sh.S. Safarov, A.E. Mamatov, N.M. Mahmudov, O‘.Q. Yusupov, D.S. Xudoyberganova, D.R. Djumanova,

² Гумбольдт В.Ф. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1985. – 452 с.; Буслаев Ф.И. Русский быт и духовная культура. Сост. и отв. ред. О.А. Платонов. – М.: Институт русской цивилизации, 2015. – 1008 с.; Афанасьев А.Н. Поэтические воззрения славян на природу. В 3-х т. – Т.1. – М.: Индрик, 1994. – 801 с.; Потенбня А. А. Мысль и язык. – Киев: СИНТО, 1993. – 192 с.

M.D. Djusupov, I.M. Tuxtasinov³larning monografiya va maqolalari lingvokulturologik birliklarning lisoniy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan.

Lingvokulturologiya sohasida so'nggi yillarda qiyosiy aspektdagi izlanishlar rivojlandi. G.K. Kdirbayeva, L.E. Xolmuradova, U.R. Yo'ldoshev, A.A. Sharipova, D.A. Tosheva, D.K. Baxronova, N.A. Tuxtaxodjayeva, D.A. Rustamova, Sh.Z. Raxmatullayeva, D.A. Rustamov, A.A. Mo'minova⁴ kabi tilshunoslarning ishlari bir-biriga qardosh bo'lmagan ikki til doirasida olib borilgan tadqiqotlar yuzasidan ahamiyatlidir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq I-204-4-5 raqamli «Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o'rtasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlar» ilmiy loyihasining «Ingliz va o'zbek tillarining qiyosiy tipologiyasi» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida murojaat kategoriyasining lingvopragmatik va lingvokulturologik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va o'zbek tillaridagi murojaat kategoriyasiga oid til birliklarining til tizimidagi tutgan o'rnini o'rganish;

ingliz kommunikativ madaniyatida murojaat kategoriyasining ifoda vositalari

³ Yakubov J. Fransuz tilida «muhabbat» konseptining kognitiv xususiyatlari/Olmonshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari. – T., 2011. – B.107-111; Бакиева Г. Лингвистические основы анализа художественного текста: Автореф. дисс... док-ра филол. наук. – Т., 1993. – 46 с.; Ashurova D., Galieva M. Cultural Linguistics. – 2019.; Ashurova D. Text Linguistics. -Tashkent: Tafakkur Qanoti. 2012. – 204 p.; Бушуй А. Взаимоотношения между языком, культурой и обществом//Тил va milliy madaniyat. Samarqand davlat chet tillar institutining 10 yilligi yubileyiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro konferensiya materiallari. – Samarqand, 2008. – B. 6-13.; Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. 92 b.; Mamatov A. Lingvomadaniyatshunoslik:lingvokulturema va logoeistema. – Xorijiy filologiya. Til. Adabiyot. Ta'lim. – Samarqand, 2015. – №1(54). – B. 9-15; Mahmudov N. Olamning lisoniy manzarasi va so'z o'zlashtirish // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 2015. –№3. –B.3-12.; Yusupov O'. Ma'no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamallari xususida/ Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida. – T., 2011. – B. 49-55; Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. –T.:Turon-zamin-ziyo, 2015. – 42 b.; Тухтасинов И.М. Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков): дис. канд. филол. наук. – Т., 2011. – 157 с.

⁴ Qdirbayeva G.K. «Man» – «adam» konseptosferasi birliklarining lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlari (ingliz va qoraqalpoq tillari misolida): Fil.fan. PhD diss. – T., 2017. – 158 b.; Холмурадова Л.Э. Тематико-идеографическая репрезентация образных и мотивированных фразеологизмов английского и французского языков (лингвокультурологический аспект): Дисс. ... PhD по фил.наукам. -Самарканд, 2017. – 144 с.; Yo'ldoshev U.R. Hajviy matnlar tarjimasining lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari (ingliz tiliga tarjima qilingan o'zbek xalq latifalari misolida): Fil.fan. PhD diss. – T., 2017. – 163 b.; Sharipova A.A. Stilistik sinonimlar tarjimasining lingvokulturologik xususiyatlari (ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida): Fil.fan. PhD diss. –T., 2017. –160b.; Tosheva D.A. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari:Fil.fan. PhD diss. –T., 2017. –151b.; Baxronova D.K. Antropozoomorfizmlarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari (o'zbek va ispan tillari materialida): Fil.fan. PhD diss. – T., 2017. 157 b.; Tuxtaxodjayeva N.A. Badiiy tarjimada lingvokulturemalarning ifodalanishi (ingliz va o'zbek tillari misolida): Fil.fan. PhD diss. – T., 2017. – 141 b.; Rustamova D.A. Metaforik evfemizatsiyaning lingvokulturologik va sotsiopragmatik aspektlari: Fil.fan. PhD diss. –T., 2018. –145 b.; Raxmatullayeva Sh.Z. Harakat tarzi shakllarining lingvokulturologik va sotsiopragmatik xususiyati (o'zbek tili materiallari asosida): Fil.fan. PhD diss. – Qarshi, 2018. – 122 b.; Rustamov D.A. Leksemalar milliy-madaniy xoslangan sememasining lingvomadaniy aspekti: Fil.fan. PhD diss. – Farg'ona, 2018. -128 b.; Mo'minova A.A. Fransuz, o'zbek va rus tillarida undashni ifodalovchi til birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari: Fil.fan. PhD diss. – T., 2018. –158 b.

xususiyatlarini tahlil qilish;

ingliz va o'zbek tillarida murojaat kategoriyasi vositalarining ifodalanish usullarini aniqlash;

murojaat kateygoriyasi tadqiqiga kommunikativ-pragmatik yondashuvning ahamiyatini ko'rsatish;

ingliz va o'zbek tillarida murojaat kategoriyasi Pilingvopragmatik jihatlarining o'xshash va farqli jihatlarini ochib berish;

ingliz va o'zbek tillarida murojaat kategoriyasi lingvomadaniy jihatlarining o'xshash va farqli jihatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obykti sifatida ingliz va o'zbek tillarida murojaatni ifoda etuvchi lingvistik vositalar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek tillarida murojaat kategoriyasi ifoda vositalarining lingvopragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kontekstual, tavsifiy, komponent, chog'ishtirma, lingvopragmatik hamda lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

murojaat kategoriyasi lingvistik maqomini belgilashda kommunikativ-pragmatik yondashuv samaradorligi murojaat kategoriyasi nutqiy aktining ijtimoiy-kommunikativ aloqadagi verbal ifodasini ochib berish orqali isbotlangan;

ingliz va o'zbek tillarida murojaat kategoriyasining turli lisoniy olam manzarisini shakllantirishga qaratilgan lingvopragmatik hamda lingvokulturologik xususiyatlari nutqiy aktlar nazariyasi hamda kross-madaniy tahlil usullari orqali ochib berilgan;

ingliz va o'zbek tillarida murojaat kategoriyasini ifodalovchi birliklarni qo'llashda nutq madaniyati, xususan, adabiy normalarning rasmiy, norasmiy hamda oddiy so'zlashuvda qo'llanish xususiyatlari *adresant va adresatning pragmatik xususiyatlari, murojaatning pragmatik maqsadlari va natijalarini, adresatga munosib murojaatni tanlashga ta'sir qiluvchi* omillar asosida aniqlangan;

til va ijtimoiy omillar korrelyatsiyasining ingliz va o'zbek tillarida murojaat kategoriyasini ifodalovchi birliklarning lingvopragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari hamda tillararo muqobillarini aniqlashdagi imkoniyati dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

so'zlashuv muloqoti amaliyotida nazariy va amaliy material sifatida foydalanilishi hamda tilshunoslik turkumidagi fanlarni o'qitish jarayonida foydalanilishi, lingvopragmatika, psixolingvistika, kommunikativ lingvistika hamda kommunikatsiya nazariyasining dolzarb muammolariga oid maxsus kurslar, maxsus seminarlar va fakultativ kurslar tayyorlashda, kurs ishlari, bitiruv malakaviy va boshqa o'quv ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanilishi mumkinligidan iborat.

Taqdim etiladigan murojaat kategoriyasi funksional semantikasining tilda aks ettirilishini tadqiq qilish usuli boshqa turli so'zlashuv nutq hodisalarini o'rganishda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqiyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plami, Oliy attestatsiya komissiyasi

tomonidan e'tirof etilgan davriy ilmiy nashrlar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati so'zlashuv muloqoti amaliyotida nazariy va amaliy material sifatida foydalanilishi, hamda tilshunoslik turkumidagi fanlarni o'qitish jarayonida foydalanilishi, lingvopragmatika, psixolingvistika, kommunikativ lingvistika hamda kommunikatsiya nazariyasining dolzarb muammolariga oid maxsus kurslarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati "O'rganilayotgan til nazariy aspektlari", "Asosiy o'rganilayotgan chet tili", "Til aspektlari amaliyoti", "Til ko'nikmalari integratsiyasi", "Xorijiy tillarni o'qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish", "Amaliy ingliz tili", "Madaniyatlararo kommunikatsiyalar", "Shaxslararo kommunikatsiyalar va nutq madaniyati", "Chog'ishtirma tilshunoslik" kabi fanlar va maxsus kurslarni o'qitishda material bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o'zbek tillarida murojaat kategoriyasining lingvopragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari tadqiqi bo'yicha olingan natijalar asosida:

murojaat kategoriyasi lingvistik maqomini belgilashda kommunikativ-pragmatik yondashuvning samaradorligi murojaat kategoriyasi nutqiy aktining ijtimoiy-kommunikativ aloqadagi verbal ifodasiga oid xulosalardan A-1-39 raqamli «O'zbek amaliy psixolingvistikasini yaratish dasturini ishlab chiqish» mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 23-sentabrdagi 89-03-3467-raqamli). Natijada ilmiy ingliz va o'zbek tillarida murojaat kategoriyasining lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qilgan;

ingliz va o'zbek tillarida murojaat kategoriyasining turli lisoniy olam manzarasini shakllantirishga qaratilgan lingvopragmatik hamda lingvokulturologik xususiyatlariga oid xulosalardan OT-F1-18 raqamli "Ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirish metodlari va metodologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 23-sentabrdagi ro'yxat raqami № 89-03-3467). Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillarida murojaat kategoriyasini ifodalovchi birliklarining tillararo muqobillarini ajratib olishga xizmat qilgan;

ingliz va o'zbek tillarida murojaat kategoriyasini ifodalovchi birliklarni qo'llashda nutq madaniyati, xususan, adabiy normalarning rasmiy, norasmiy hamda oddiy so'zlashuvda qo'llanish xususiyatlariga oid xulosalardan A-1-39 raqamli «O'zbek amaliy psixolingvistikasini yaratish dasturini ishlab chiqish» mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020- yil 23- sentabrdagi 89-03-3467-raqamli). Natijada ingliz va o'zbek tillarida murojaat kategoriyasining lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qilgan;

til va ijtimoiy omillarning korrelyatsiyasining ingliz va o'zbek tillarida murojaat kategoriyasini ifodalovchi birliklarning lingvopragmatik va

lingvokulturologik xususiyatlari hamda tillararo muqobillariga oid xulosalardan Andijon viloyati teleradiokompaniyasi Andijon axboroti “News” informatsion va “Yoshlar vaqti” ko‘rsatuvlarini olib borishda foydalanilgan (Andijon viloyati teleradiokompaniyasining 2020-yil 23-sentabrdagi 89-03-3467-son ma’lumotnomasi). Pirovardida ilmiy natijalarning qo‘llanilishi ingliz va o‘zbek tillarida murojaat kategoriyasini ifodalovchi birliklarning umumiy hamda o‘ziga xos jihatlarini ajratib olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanda ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta ilmiy maqola, shundan 6 tasi respublika va 7 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat bo‘lib, asosiy matn 140 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlangan, metodlari tavsiflangan, tadqiqot obyekti, predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Hozirgi zamon tilshunosligida murojaat kategoriyasini ifodalovchi til birliklarini tadqiq qilishning ilmiy-nazariy asoslari”** nomli birinchi bobida tilshunoslikda murojaat kategoriyasining tadqiqot obyekti sifatida ilmiy-nazariy asoslari, uning modallik xususiyatlari, murojaat kategoriyasini ifodalovchi til birliklarining til tizimidagi ahamiyati haqida ilmiy qarashlar nazariy va amaliy jihatdan yoritib berilgan.

So‘zlovchi suhbatdoshning diqqat-e’tiborini tortish, ularga kommunikativ ta’sir qilish, suhbatga qiziqtirish, fikrini jalb qilish, chalg‘itish, hayajonga solish, to‘lqinlantirish, ishontirish, aldash, qo‘rqitish kabi maqsadlarini amalga oshirishda so‘zning, so‘z birikmasining ekspressiv-emotsional-baholovchi konnotativ ma’nosini, ya’ni kommunikativ-pragmatik ma’nosini qo‘llash ehtiyoji vujudga keldi.

Adresatga murojaat qilish o‘ziga xos kommunikativ-pragmatik ahamiyatga ega. Nutqda faoliyat yuritib, murojaatlar matnning pragmatik ko‘rsatmasini

kuchaytirishi yoxud to'la yo'lga qo'yishi mumkin bo'ladi. Ular so'zlovchi maqsadini namoyish qiluvchi illokutiv kuchga egadir. Bu qabul qiluvchiga ta'sir qiluvchi kuchli vositadir, chunki unda "avvalboshdanoq pragmatik funksiyalar mavjud"⁵. Shu bois, tilni keng qamrovli kommunikativ kontekstda hamda nutqiy etiketning asosiy komponentlaridan biri bo'lgan murojaatni kommunikativ-pragmatik yo'nalishda o'rganish tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biriga aylandi.

Sh.Safarov ta'kidlaganidek, "nutq jarayoni, insonning faoliyati uning ruhiy, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy kabi ijtimoiy va tabiiy faoliyati bo'lganligi sababli, **pragmatik**ada nutqiy faoliyat insoniy faoliyatning qolgan o'nlab qirralari bilan bog'liqlikda o'rganiladi"⁶.

N.V. Hanguning fikriga ko'ra, murojaat so'zlovchi yoki tinglovchining muloqotdagi tinglovchini belgilash uchun ishlatiladigan so'zlardir⁷.

Har qanday tilning nutqiy muloqotida murojaatning to'g'ri shaklidan foydalanish uchun muayyan bir parametrlari yuzaga keladi. Jumladan, ingliz va o'zbek murojaatlarining o'ziga xos parametrlari murojaat ifodalovchi so'zlarni to'g'ri tanlashni belgilashda muhim omil sanaladi. Ushbu tillar parametrlariga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) jins yosh parametri (muloqotchilarning jinsi va yoshini hisobga olish); 2) status - rol parametri (turli ijtimoiy darajadagi kommunikatorlarning rollarini, ijtimoiy aloqasini, martabasi, darajasi va kasbi kabilarni aks ettirishi); 3) individual o'ziga xos parametr (kommunikatorlarning tanish yoki qarindoshlik darajasini hisobga olish); 4) hissiy va shaxsiy parametr (subyektiv shaxslararo munosabatlarni tartibga solish bilan bog'liqligi); 5) adresatning ma'lumot olish va kasbiy bandlik darajasi (adabiy yoki mahalliy xalq tili, shevalardan foydalanishi murojaat tanlashga ta'siri); 6) kommunikativ vaziyatning parametri (aloqa joyi va vaqti); 7) vaziyatning rasmiylik darajasi.

Muloqotning turli vaziyatlaridagi ushbu parametrlar kommunikatorlar tomonidan murojaatning shakllarini tanlashga turlicha ta'sir qiladi, ya'ni vaziyatga xosligi, chunki ularning har biridagi qiymatlar o'zgarishi kommunikativ vaziyatning o'zgarishiga olib keladi. Shunga ko'ra, og'zaki muloqot vaziyatlari bir necha umumlashtirilgan turlarga bo'linadi. Muloqot vaziyatlarini tasniflashning asoslari quyidagi ikkita mezonga asoslanadi: 1) ma'lum bir kommunikativ vaziyatning barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda murojaat tanlash; 2) murojaatning u yoki bu shaklini tanlashni belgilaydigan murojaatning taxminiy xususiyatlarini to'g'ri baholash. Ushbu mezonlarga asoslanib, ingliz va o'zbek tillarida murojaat kategoriyasini qo'llashning kommunikatsion vaziyatlarini uchta asosiy turga ajratib tadqiq qilmoqchimiz:

1. Notanish adresat bilan muloqot qilish vaziyatlarida qo'llaniladigan murojaatlar;

⁵Леонович Е.О. Прагматический аспект обращения (на материале английского языка): Автореф.канд.дис. – Пятигорск, 1999. – С.14.

⁶Safarov Sh., Toirova G. Nutqning etnosotsio-pragmatik tahlili asoslari. - Samarqand, Sam DCHTI nashri, 2007. – 39 b.

⁷Nguyen T. L. A study of the use of addressing terms in English and Vietnamese families.

2. Norasmiy vaziyatlarda qo'llaniladigan murojaatlar (kichik ijtimoiy guruhlar sharoitida);
3. Rasmiy muloqot vaziyatlarida qo'llaniladigan murojaatlar (katta ijtimoiy guruhlar sharoitida).

Turli tillarda murojaat shakllarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, murojaat murakkab va xilma-xil tizim sifatida o'zidan keyin keladigan qator vaziyatlarga (ular har bir madaniyatda murojaatni tanlashda turlicha ta'sir ko'rsatadi) bog'liq holda murojaatning u yoki bu turini qo'llaydigan millatning milliy-madaniy, lingvistik, ijtimoiy, kommunikativ-pragmatik va boshqa xususiyatlarini aks ettiradi.

Murojaat kategoriyasi milliy madaniyatni o'zida aks ettiruvchi turli tizimli tillar doirasida o'z ifodasini topar ekan, u o'zining o'xshash va farqli tomonlari bilan ajralib turadi.

Dissertatsiyaning «**Ingliz va o'zbek tillarida murojaat kategoriyasining lingvopragmatik jihatlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida qiyoslanayotgan tillarda murojaat kategoriyasining umumiy tavsifi va pragmatik xususiyatlari, murojaat kategoriyasini ifodalovchi leksik va grammatik vositalarning pragmatik jihatlari va ularni shakllantiruvchi lingvistik va ekstralingvistik omillar haqida fikr yuritiladi.

Pragmatika tilshunoslikning nisbatan yangidan shakllangan, insonning nutq faoliyatini o'rganishga, bunday faoliyatning maqsadi, mazmuni, bunday maqsad va mazmunning og'zaki va yozma matnda verbal va noverbal ifodalanish vositalarini, ularning nutq aktidagi o'rni, kommunikativ ta'sirini, so'zlovchi va tinglovchi nutqidagi turlicha munosabatlarning lisoniy belgilarda ifodalanishini o'rganuvchi fan tarmog'idir. Pragmatikaning tilshunoslikning bir yo'nalishi sifatida shakllanishi tadqiqotchilarga murojaat kategoriyasining suhbatdoshga ma'lum bir so'zlashuv (konstruksiyasi) orqali ta'sir ko'rsatuvchi so'zlashuv harakatlarining alohida bir turi sifatida o'rganish imkonini beradi.

Tilshunoslikda nutqiy murojaat kategoriyasining asosiy muammolari, muammoning yuzaga kelishi, o'rganilishi kabilar L.Vitgenshteynning insoniy faoliyat masalalariga oid falsafiy qarashlari bilan bog'liq. Nutqiy akt nazariyasida murojaat kategoriyasining o'rni masalasi ilk bor ingliz faylasufi J.Ostin tomonidan ilgari surilgan. U asosiy e'tiborni nutqiy akt nazariyasi doirasida murojaat kategoriyasining roli masalasini ham ishlab chiqish, xususan, nutqiy akti shakllantiruvchi fe'llar tahliliga hamda murojaatni muloqotning eng muhim, hatto, ayrim o'rinlarda hal qiluvchi rol o'ynovchi element sifatida tasniflash masalasiga e'tibor qaratdi. J.Ostinning oxirgi kitobida olimning bu masalaga oid qarashlari jamlangan.⁸

J.Ostin nutq akti va murojaat kategoriyasining undagi roli haqidagi konsepsiyasi dastlab Vendler, J. Serl tomonidan tahlil etildi, uning yutuq va kamchiliklari ko'rsatildi va nutqiy murojaat haqida yangi qarashlar bilan boyitildi, va rivojlantirildi.⁹ Keyinchalik bu muammo V. Gumboldt D.T. Sh. Balli, S. Karsevskiy, L.P. Yakubinskiy, K. Byuler, E. Benvenist, M.M. Baxtin va

⁸ Остин Дж. Слово как действия// новое в зарубежной лингвистике // теория речевых актов. – М.: Прогресс, 1986. – С. 22-129.

⁹ Вендлер З. Иллокутивное самоубийство. Лингвистическая прагматика. – М. 1985. век XVI. – С. 253-252

boshqalarning lingvistik qarashlarida ham o‘z ifodasini topdi.¹⁰

O‘zbek tilshunosligida murojaat kategoriyasi muammosi M. Hakimov tomonidan maxsus o‘rganilgan. Tadqiqotda murojaat kategoriyasi va nutq aktining umumiy belgisiga qarab ko‘plab tilshunoslar tomonidan e’tirof etilgan murojaat kategoriyasi, so‘zlash akti (lokutiv), muloqot (illokutiv), propozitsional, nutqiy ta’sir ko‘rsatish (prelokutiv) aktlariga munosabat bildiriladi. Olim mazkur tadqiqot ishida nutq akti va murojaat kategoriyasining kontekstual reprezentatsiyasi ko‘rinishlarini J.R. Serl konsepsiyasiga tayangan holda tasniflab, har bir turning mohiyatini ingliz tili matnlari asosida ochib berdi.

M. Hakimov nutqiy akt ko‘rinishlarini quyidagicha tasnifladi:

1. Reprezentativ yoki xabar nutqiy akti.
2. Majburiyat aktlari.
3. Ekspressiv aktlar.
4. Deklarativ aktlar.¹¹

Nutq akti va murojaat kategoriyasining nazariy jihatlarini ilmiy muammo sifatida Sh. Safarovning “pragmalingvistika” asarida ham alohida o‘rin egallagan. Olim nutq akti nazariyasining pragmalingvistik ta’limotda tutgan o‘rniga xolis baho berdi, tilshunoslarning nutq akti va murojaat kategoriyasining voqealanishi haqidagi nazariy qarashlarini yangi bilimlar bilan boyitdi.¹²

Jahon tilshunosligida nutq akti va murojaat kategoriyasi muammosining tahliliga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari ko‘p bo‘lsa-da, ularda murojaat kategoriyasi tushunchasi har xil talqin qilingan, uning ko‘rinishlari turlicha tasniflangan. Nutqiy akt nazariyasi asoschilari J. Ostin, J. Serlning qarashlariga ko‘ra nutq akti muayyan mazmuni ifoda etuvchi, tilning qonun-qoidalariga asoslangan holda bayon etilgan elementar nutqiy harakatni anglatadi va bu harakatda murojaat kategoriyasining roli va ahamiyati kattadir¹³.

Ma’lumki, har qanday nutqiy harakat birinchi navbatda so‘zlovchi shaxsning lisoniy vositalar yordamida murojaatini taqozo etadi. Demak, nutqiy akt so‘zlovchining ma’lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir¹⁴.

Maqsadga nisbatan va amalga oshirilish shart-sharoitlariga ko‘ra nutq akti illokutiv akt sifatida belgilanadi. Tilshunos olim Yu.D. Апресян ifodaning illokutiv vazifasini “so‘zlovchining adresat ifodani qanday tushunishi borasidagi ko‘rsatmasi...”¹⁵ sifatida atashni taklif qiladi. Ifodaning illokutiv funksiyasi tarkibida

⁵Вендлер З. Иллокутивное самоубийство.Лингвистическая прагматика. М.1985. – С. 253-252.

¹⁰ Серль Дж. Классификация иллокутивных актов II новое в зарубежной лингвистике: теория ролевых актов. – М. 1986 век XVII . – С .170-194.

Safarov Sh. Pragmalingvistika. – T.:Fan, 2008. 63-b.

Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – T.Fan, 2013, 174 b.

Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: FFD dis. S – T .2001, 134-154 bb.

¹¹ Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: FFD ...dis. – T .2001, 134-151 bb.

¹² Safarov Sh. Pragmalingvistika. –Toshkent., 2008. – B. 65.

¹³ Остин Дж. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. – М., 1986. – С. 22; Серль Дж. Классификация иллокутивных актов II новое в зарубежной лингвистике: теория ролевых актов. –М., 1986 век XVII . – С.170-194.

¹⁴ Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent., 2008. – B. 65.

¹⁵Апресян Ю.Д. Прагматическая информация для толкового словаря. Коннотации как часть прагматики слова // Ю.Д. Апресян. Избранные труды в 2 т. – Т . 2. Интегральное описание языка и системная лексикография. –

bir necha qismlar mavjud, bular: *illokutiv maqsad, illokutiv maqsadga erishish usuli, illokutiv kuchning shiddati, nutq akti muvaffaqiyatining sharti*. Nutqiy faoliyat nutq vositalarining qo'llanishiga nisbatan lokutiv akt sifatida belgilanadi. Oxir-oqibat, o'z natijalariga nisbatan nutq akti perlokutiv akt sifatida belgilanadi. Quyidagi o'zbek tilidagi misollar shundan dalolat beradi:

Masalan, kechirim aktida murojaatning o'rni.

-Xayoling qayoqda edi, a? Nega darsga quloq solmaysan?

- Meni kechiring, oyi! (P.Qodirov qissalari, 36 b)

Kozim o'z kechirim so'rashida, murojaat yo'naltirilgan so'zni biroz cho'zish, yalinish intonatsiyasini berish uchun gap oxiriga joylagan. Bu holatda tinglovchining xotirasida, birinchi va oxirgi so'z albatta qoldi. Shuning uchun bu holat foyda berdi, onasi Kozimni kechirdi.

Kommunikativ vaziyat ma'lum bir tuzilishga ega. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: 1) so'zlovchi (adresant); 2) tinglovchi (adresat); 3) so'zlovchi va tinglovchining o'zaro munosabati va shunga bog'liqligi; 4) muloqot ohanglari (rasmiy-neytral-do'stona); 5) maqsadi; 6) muloqot vositasi (verbal yoki noverbal); 7) muloqot usuli (og'zaki/yozma, kontaktli/masofali); 8) muloqot joyi. Ushbu komponentlar kontekstual o'zgaruvchan hisoblanadi. Ularning har biridagi o'zgarish kommunikativ vaziyatning o'zgarishiga va buning natijasida vaziyat ishtirokchilari foydalanadigan vositalar hamda ularning kommunikativ xatti-harakatlari o'zgarishiga olib keladi. Shu bois, murojaatlarning aynan qaysi vaziyatlarda qay tarzda kelishini o'rganish ahamiyatga molikdir¹⁶.

Nutq egalari ayni maqsadni o'zlari xohlagan, mazkur nutq sharoiti uchun eng maqbuli deb tanlagan murojaat turini namoyish etishlari uchun ma'lum bir nutqiy aktdan foydalanadilar:

1. – *Ey sodda do'stim, dushmaning ko'p bo'lsa ham tuya bil, degan gap borku axir* (S.Siyoyev. 47b). Bu gapda “tuya” so'zi hayvon ma'nosida emas, balki “tuymoq” fe'lining shakli sifatida qo'llanilgan bo'lib, xabar aktining ifoda etilishi uchun voqelikda dushmanga munosabati o'z do'stiga murojaat shaklida yetkazadi va xabarni yangilik sifatida yuzaga chiqaradi. Ushbu gapda so'zlovchining tinglovchi bilan do'stona munosabati borligi uchun uni xavf-xatardan ogohlantirishni niyat qilib belgilash maqsadida do'stini ehtiyotkor bo'lishi xaqida xabar berishni ko'zlagan.

2. – *Xoy olifta, pichoqni avval o'zingga ur, og'rimasa bировga* (S.Siyoyev O.V.J. 117 b). Ushbu gapda buyruqni ifoda etuvchi nutqni ko'rishimiz mumkin. Ayni sintaktik struktura orqali so'zlovchi maqsadi bilan bog'liq tarzda o'zga axborot bayon etiladi. Masalan: – *Xoy, Abdulloh, haligi bir maqol borku, nari borsa ho'kkiz o'lar, beri kelsa arava sinar*. Ushbu maqolda so'zlovchi ish harakatidan

C. 1995. C.138.

¹⁶ Qodirova M.T. Turli tizimli tillarda murojaatning kommunikativ-pragmatik aspekti (ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ... tayyorlangan dissertatsiya. – Termiz 2021. 218-b.

kutilayotgan natijani nazarda tutayotgani yaqqol namoyon bo‘ladi.

Muloqotda so‘zlovchining kommunikativ maqsadiga mos ravishda muayyan tarzda tinglovchiga ta‘sir qilishi niyatida u yoki bu til vositalarning tanlanishi – illokutiv aktning muhim bosqichi hisoblangan nutqiy faoliyat asosi sifatida o‘ziga xos qiymati yuzasidan lingvopragmatik tadqiqotlarda nutq aktlarning ko‘pincha illokutiv hodisaga tenglashtiriladi va illokutiv belgilariga ko‘ra tasnif qilinadi.

